

FUQAROLIK PROTSESSIDA UCHINCHI SHAXSLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING KAFOLATLARI VA XORIJIY DAVLATLAT TAJIRIBASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Jo'rayev Javlonbek Norboboyevich

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash

va malakasini oshirish instituti o'qituvchisi

mail: javlon-juraev@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada uchinchi shaxslar tushunchasi, turlari va ularning protsessual holati yoritilgan bo'lib, uchinchi shaxslarning har bir turi bo'yicha o'ziga xos xususiyatlari milliy qonunchilik asosida tahlil qilingan holda nazariy va amaliy jihatlari haqida fikr bildirilgan. Rivojlangan xorijiy davlatlarning fuqarolik protsessual qonunchiligidagi uchinchi shaxslar ishtiroki bilan bog'liq amaliy tajribasi o'rganilgan.

Shuningdek, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar hamda nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarning protsessdagi ishtiroki va huquqiy holati ilmiy jihatlari yoritilgan. Shu bilan birga, mazkur sohaga oid nazariyotchi olimlar, tajribali amaliyotchi xodimlarning fikr va mulohazalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sud hokimiyati, jamoatchilik nazorati, fuqarolik protsessi, ommaviy axborot vositalari, sud ishlarini yuritish, protsessual harakatlar, arbitraj, sud-tergov jarayonlari, fuqarolarning o'zini o'z boshqarish organlari.

Hozirda dunyo hamjamiyatida davlat manfaatlari emas, shaxslar manfaatlari birinchi o'ringa qo'yilmoqda va bu to'g'risida turli xil xalqaro tashkilotlar tomonidan shartnomalar imzolanmoqda.

Bularning barchasi inson huquqlarini to'laqonli amalga oshirilishi va ularning buzilgan huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Shu jumladan mamlakatimizda fuqarolarning sud orqali himoyalaniish huquqini ta'minlash bo'yicha tegishli amaliy choralar ko'rilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida "Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa

tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi” belgilangan.

Ma'lumki, fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibi Fuqarolik protsessual kodeksi asosida amalga oshiriladi.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar sudda o'zining huquqi yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilishni so'rab murojaat qilgan shaxsning, prokurorning hamda agar davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar qonunga muvofiq boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etishga haqli bo'lsalar, ularning bergan arizalari bo'yicha qo'zg'atilgan ishlar natijasida yuzaga keladi.

Protsessda yana shunday shaxslar ham borki, ular boshqa shaxslar tomonidan boshlangan jarayonga kirib keladilar va fuqarolik huquqiy nizolarning hal etilishidan taraflar kabi manfaatdor bo'ladilar.

Da'vogar va javobgarga nisbatan ushbu shaxslar (hisob bo'yicha) uchinchi shaxslar deb e'tirof etiladi va shuning uchun ham ushbu shaxslar fuqarolik protsessida uchinchi deb nomlanadi.

Uchinchi shaxslar fuqarolik protsessida boshqa shaxslar (tomonidan) da'vosi bo'yicha qo'zg'atilgan fuqarolik ishida o'z huquqlari va qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar.

Fuqarolik protsessida ishtirok etuvchi uchinchi shaxslar ishning hal etilishidan qanday mazmunda manfaatdor ekanliklari hamda ish yuzasidan chiqariladigan hal qiluv qarori bilan qanday oqibatlar yuzaga kelishiga qarab, quyidagi ikki turga ajratiladi:

- 1). Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar;
- 2). Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar.

Shu munosabat bilan uchinchi shaxslarning fuqarolik protsessidagi ishtirokini tahlil qilishda ularning har bir turi bo'yicha quyida alohidaalohida ajratgan holda tahlil qilamiz.

1. Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar

Fuqarolik protsessual kodeksining 48-moddasiga asosan, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar ishga kirishishi mumkin. Ular da'vogarning barcha huquqlaridan foydalanadi va uning barcha majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

Agar nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar ishga sud muhokamasi boshlanganidan so'ng kirishgan bo'lsa, ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarga nisbatan yuridik adabiyotlarda ko'plab ta'riflar ishlab chiqilgan.

Xususan, M.K.Treushnikovning fikricha, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar deganda, boshlangan protsessda da'vogarga hamda javobgarga nisbatan da'vo qo'zg'atib kirib kelgan shaxslar tushuniladi. M.S.Shakaryanning fikricha, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar da'vogar va javobgar o'rtasida yuz bergan protsessda o'zining nizoning predmetiga mustaqil huquqini himoya qilib ishtirok etuvchi shaxs hisoblanadi.

Sh.Sh.Shorahmetovning fikricha esa, da'vogar bilan javobgar o'rtasidagi nizoning predmeti o'ziga tegishli bo'lishi to'g'risida arz qiluvchi shaxs mustaqil da'vo qiluvchi uchinchi shaxs hisoblanadi.

Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar instituti fuqarolik, mehnat, uy-joy, nikoh, meros, tadbirkorlik va boshqalar kabi jamiyat hayotining turli sohalaridagi nizolarni hal etishda asosiy rol o'ynaydi. Uchinchi shaxslarni jalb qilish mavjud vaziyatni ajratib ko'rsatishga, agar taraflar yoki ulardan biri muayyan holatlarni yashirishga harakat qilsa, ishning tafsilotlarini aniqlashga, shuningdek, sud ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilishni ta'minlashga imkon beradi. Ushbu institutga qiziqish har doim mavjud bo'lib, ayniqsa nizo predmeti bo'yicha mustaqil talablar qo'ymaydigan uchinchi shaxslar toifasi haqidagi masala alohida qiziqish uyg'otadi.

Garchi qonun hujjatlarida “nizo predmeti bo'yicha mustaqil da'volar bildiruvchi uchinchi shaxs” tushunchasi mavjud bo'lsa-da, ilmiy tadqiqotlar tahlili ham bu masala bo'yicha konsensusni ta'minlamaydi. Darsliklarda “uchinchi shaxs” tushunchasi berilgan,

ammo bunday shaxslarning o'ziga xos turlari va ularning mazmuni to'laqonli emas, faqat ularning ba'zi huquq va majburiyatlari qayd etilgan xolos.

D.Xabibullaevning fikricha, uchinchi shaxslar sifatida tan olish uchun ularni manfaatlari mazmuni va huquqiy oqibatlariga e'tibor qaratish zarur. M.Mamasiddiqov esa, sherik ishtirokchilikdan farqli ravishda uchinchi shaxslarning taraflardan farqi ular o'rtasidagi manfaatdorlik borasida qarama-qarshilikning yo'qligi hisoblanadi va ularning talab va e'tirozlari bir xilda bo'ladi.

Bundan ko'rinadiki, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarga berilgan ta'riflar barcha olimlar tomonidan deyarli bir xil ta'rif berilgan.

Bizning fikrimizcha, da'vogar tomonidan boshlangan ishning natijalaridan manfaatdor bo'lgan va shu ishga sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilingunga qadar kirishadigan hamda da'vogarning barcha huquqlaridan foydalanadigan shaxs nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar deb ataladi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 48-moddasiga asosan, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar ishga kirishishi mumkin. Ular da'vogarning barcha huquqlaridan foydalanadi va uning barcha majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

Agar nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar ishga sud muhokamasi boshlanganidan so'ng kirishgan bo'lsa, ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

Demak, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs da'vogar bilan teng huquqlarga ya'ni "bildirilgan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirishga, qo'shimcha talablar taqdim etishga, da'vo talablarining miqdorini oshirishga yoxud kamaytirishga, ulardan to'liq yoki qisman voz kechishga haqli" bo'lib, sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar ishga kirishishi mumkin. Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs bilan da'vogarning ikkita farqli tomoni mavjud bo'lib, birinchidan, fuqarolik sud ishini boshlashda da'vogar boshlagan ishda o'zining huquqlari borligi sababli ishtirok etsa, ikkinchidan boshlangan protsessga kirishish vaqti bilan farqlanadi.

Uchinchi shaxslar da'vo taqdim etishning barcha talablariga rioya qilish lozim bo'ladi. FPKning 188-190-moddalariga binoan sudda ishlar yozma shaklda, shu jumladan pochta orqali yoki elektron hujjat tarzida ariza berish yo'li bilan qo'zg'atiladi. Ushbu shaxslar o'z arizasiga tegishli hujjatlarni ilova qilishi, arizani taraflarning soniga mutanosib miqdorda nusxalari bilan berishi, agar davlat bojini to'lashdan ozod etilmagan bo'lsa, tegishli bojni to'lashi lozim bo'ladi.

Ko'rinadiki, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs da'vogar bilan bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi hamda protsessdagi boshqa shaxslarga nisbatan huquqiy oqibat keltirib chiqaradi. Jumladan, FPKning 48-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, agar nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar ishga sud muhokamasi boshlanganidan so'ng kirishgan bo'lsa, ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

Yuqoridagilardan ko'rishimiz mumkinki, qonunchilikda nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar boshlangan ishga kirishishi va da'vogarning barcha huquqlaridan foydalanishi mumkinligi belgilangan. Biroq, uchinchi shaxs protsessda aynan qaysi tarafga (da'vogar yoki javobgar) nisbatan da'vo qo'zg'atishi mumkinligi aniq ko'rsatilmagan.

Uchinchi shaxs da'voni faqat bir tarafga nisbatan yoki bir vaqtning o'zida har ikki tarafga nisbatan ham taqdim etishi mumkin. Sud amaliyotida uchinchi shaxslar ko'proq da'voni har ikkala shaxsga qaratishi va ushbu shaxslar uchinchi shaxsga nisbatan sherik javobgar holatini egallashlari kabi holatlar kuzatiladi.

Ayniqsa, ko'proq oilaviy nizolar to'g'risidagi ishlardabunday holatlar ko'proq kuzatiladi. Masalan, er-xotin o'rtasidagi umumiy birgalikdagi mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi ishlarni ko'rishda nizo predmeti hisoblangan mol-mulkka nisbatan er-xotinning boshqa oila a'zolari har ikki tarafga ham qarshi hisoblanadi.

Shu bilan birga, otalikka e'tiroz bildirish to'g'risidagi ishlarda ham da'vogar farzandi uning bolasi emasligini bildirishi va bolaning onasi ham buni tan olgan holatlarda boshqa uchinchi shaxs, ya'ni bolaning haqiqiy otasi ishga kirishishi mumkin bo'lib, har ikki tarafga nisbatan qarshi bo'lishi mumkin.

Yuridik adabiyotlarda uchinchi shaxslar faqat taraflardan biriga nisbatan da'vo taqdim etishi mumkinligi haqida fikrlar ilgari suriladi.

M.S.Shakaryanning fikricha, uchinchi shaxslarning da'volari ko'pincha dastlabki da'vogarga yoki ayrim hollarda faqat javobgarga nisbatan taqdim etiladi. M.Mamasidiqovning fikricha, uchinchi shaxslar da'voni bir vaqtning o'zida har ikkala tarafga ham qaratishi mumkin.

Sh.Sh.Shoraxmetovning fikricha esa, protsessda uchinchi shaxs ariza beruvchi yoki da'vogar bo'lib hisoblanishi, dastlabki taraflar esa unga nisbatan javobgar sifatida ko'rilishini ta'kidlagan.

Bizning fikrimizcha, uchinchi shaxslar protsessda da'vogarning barcha huquqlaridan foydalangan holda taraflardan birining talablariga yoki har ikki tarafning manfaatlariga qarshi da'vo kiritishi mumkin deyishimiz mumkin.

Ishga uchinchi shaxsning kirishishi haqidagi masalani hal qilar ekan, sudya bu haqda ajrim qabul qiladi. FPKning 400-moddasi mazmunidan kelib chiqib, protsessda uchinchi shaxsning ishtirok etishiga yo'l qo'yilishi to'g'risida sudyaning chiqargan ajrimi ishning keyingi harakatlariga to'sqinlik qilmaganligi uchun uning ustidan shikoyat qilinmaydi. Uchinchi shaxsning ishda ishtirok etishi to'g'risidagi iltimosini rad qilish to'g'risidagi ajrim ustidan esa shikoyat berilish yoki protest keltirilishi mumkin.

Jumladan, Fuqarolik protsessual kodeksining 400-moddasiga asosan, taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar birinchi instantsiya sudining ajrimlari ustidan sud tomonidan ajrim topshirilgan yoki yuborilgan kundan e'tiboran yigirma kun ichida apellyatsiya instantsiyasi sudiga quyidagi hollarda sudning hal qiluv qaroridan alohida shikoyat qilishi va prokuror protest keltirishi mumkin:

- 1) ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda;
- 2) sudning ajrimi ishning keyingi harakatlanishiga to'sqinlik qiladigan hollarda.

Birinchi instantsiya sudining boshqa ajrimlari ustidan xususiy shikoyat (protest) berilmaydi, biroq bunday ajrimlarga qarshi e'tirozlar apellyatsiya shikoyatiga (protestiga) kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 25-oktyabrdagi 19-sonli "Fuqarolik ishlari bo'yicha birinchi instantsiya sudining ajrimlari to'g'risida"gi qarori ning 16-bandiga ko'ra, birinchi instantsiya sudining xususan, uchinchi shaxslar va vakillarning protsessga kirishi to'g'risidagi ajrimlari ustidan sudning hal qiluv qaroridan alohida shikoyat qilinmaydi.

Ishda ishtirok etishga yo'l qo'yilmagan uchinchi shaxs alohida da'vo taqdim etish yo'li bilan nizoli predmetga nisbatan bo'lgan huquqini himoya qilishga haqli bo'ladi. Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablari bo'lmagan uchinchi shaxslardan farqli ravishda quyidagi o'ziga xos maxsus xususiyatlarga ega bo'ladi:

birinchidan, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar da'vogar tomonidan ilgari surilgan predmetga nisbatan mustaqil da'vo qiladi;

ikkinchidan, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar protsessga da'vo arizasi berish yo'li bilan kirishadi. Aytib o'tilganidek, bu turdagi uchinchi shaxsni o'z ixtiyoriga qarshi protsessga jalb qilish mumkin emas;

uchinchidan, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar doimo boshlangan protsessga sud hal qiluv qarori chiqargunga qadar kirishadi. Uchinchi shaxslar amalda protsessga ishni sudda ko'rishga tayyorlash bosqichidan boshlab sud hal qiluv qarori chiqarish uchun alohida xonaga (maslahatxona) kirguniga qadar kirishishi mumkin;

to'rtinchidan, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar nizoli predmetga to'liq yoki qisman da'vo qilishlari mumkin;

beshinchidan, uchinchi shaxs manfaati har ikkala tarafga qarshi bo'lishi mumkin.

Ushbu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, agar uchinchi shaxs da'vogar tomonidan boshlangan protsess haqida xabardor bo'lmay, bu haqda sud hal qiluv qarori chiqarilgandan keyin xabar topadigan bo'lsa, u holda mazkur shaxs umumiy asosda sudga da'vo ariza bilan murojaat qilishga haqli bo'ladi.

Mazkur protsessda uchinchi shaxs da'vogar maqomiga ega bo'lsa, javobgar sifatida esa oldingi protsessda ishtirok etgan da'vogar va javobgarlar e'tirof etiladi.

Jumladan, Fuqarolik protsessual kodeksining 3-moddasiga asosan, har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqi yoxud qonun bilan

qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda fuqarolik ishlari bo'yicha sudga (sudga) murojaat qilishga haqli.

Mazkur modda talablaridan kelib chiqqan holda sudning hal qiluv qarori qabul qilingandan so'ng xabar topgan uchinchi shaxslar umumiy tartibga sudga da'vo ariza bilan murojaat qilib, o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi mumkin.

Shu bilan birga, fuqarolik protsessida birgalikda ishtirok etuvchi shaxslar ham mavjud bo'lib, belgilangan tartibda ishtirok etadilar va muayyan bir huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar.

Xususan, Fuqarolik protsessual kodeksining 45-moddasiga ko'ra, da'vo bir nechta da'vogar tomonidan birgalikda yoki bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilishi (protsessda birgalikda ishtirok etish) mumkin. Protsessda birgalikda ishtirok etishga alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha ham yo'l qo'yiladi.

Protsessda birgalikda ishtirok etishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi, agar:

– nizo predmeti bir nechta da'vogarning yoki javobgarning umumiy huquqlari yoki majburiyatlari bo'lsa;

– bir nechta da'vogarning yoki javobgarning huquq va majburiyatlari bitta asosga ega bo'lsa;

nizo predmeti bir turdagi huquq va majburiyatlardan iborat bo'lsa.

Da'vogarlar va javobgarlardan har biri boshqa tarafga nisbatan protsessda mustaqil ravishda ishtirok etadi. Uchinchi shaxslar ham protsessda birgalikda ishtirok etishlari mumkin.

Protsessda birgalikda ishtirok etuvchilar ishni olib borishni sherik ishtirokchilardan biriga topshirishi mumkin. Sud nizolashilayotgan huquqiy munosabatning xususiyatini inobatga olgan holda ishga jalb etilmagan sherik javobgarni ishda ishtirok etish uchun o'z tashabbusiga yoki taraflarning iltimosnomasiga ko'ra jalb qilishga haqli.

Mazkur modda talablaridan ko'rinadiki, protsessda birgalikda ishtirok etuvchi shaxslar da'vogar yoki javobgar tarafda birgalikda ishtirok etib, sherik da'vogar yoki sherik javobgar sifatida qatnashadi. Bunda sherik da'vogar hamda javobgarlarning

maqsadi bitta predmetga qaratilgan bo'lib, bir tarafda ya'ni da'vogar yoki javobgar tarafda bo'ladilar.

Shu bilan birga, uchinchi shaxslar ham ishda birgalikda ishtirok etishi mumkin bo'lib, bunda ularning protsessdagi maqomi uchinchi shaxslar hisoblanadi.

Mazkur holatda sherik da'vogar hamda uchinchi shaxslarning ayrim o'xshash va farqli jihatlari mavjud bo'lib, ularning protsessdagi ishtiroki va huquqlarini farqlash muhim hisoblanadi.

Sherik da'vogarlar sudga birga da'vo taqdim etishlari yoki boshqa da'vogar tomonidan boshlangan protsessga kirishishi mumkin. Uchinchi shaxs esa esa faqat boshlangan protsessga kirishadi. Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxsning sherik da'vogarlardan muhim farqlanuvchi jihatlardan biri ular manfaatining o'zaro qaramaqarshiligidir. Zero, uchinchi shaxsning ham, da'vogarning ham da'vo predmeti bir xilda bo'ladi va sud ularning yoki javobgarining manfaatlarini himoya qiluvchi hal qiluv qarori chiqarishi mumkin. Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxsning da'vosi bo'yicha dastlabki da'vogar va javobgar ishda javobgarining holatini egallaydi. Sherik da'vogarning talabi har doim javobgarga nisbata qaratiladi.

2. Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar

Mustaqil da'vo qilmaydigan uchinchi shaxslarni jalb qilishning asosiy mezon qonuniy manfaatdorlikning mavjudligi hisoblanadi. Bunday shaxslar haqida gapirganda, ularning manfaatdorligi xususiyatini hisobga olish kerak, lekin qonun hujjatlarida bu manfaatning mazmuni belgilab bermagan. Shuning uchun ilmiy adabiyotlarda ushbu masalani o'rganishga bir nechta yondashuvlar mavjud.

Ayrim olimlar manfaatdorlik deganda moddiy-huquqiy munosabatda ishtirok etuvchi taraflarning sud jarayonida moddiy huquqiy manfaatga doir talablarini tushunishni taklif qiladi¹⁰. Biroq, har doim ham moddiy huquqiy talab mavjud bo'ladi deyish qiyin albatta.

Fuqarolik protsessual kodeksining 49-moddasi birinchi qismiga ko'ra, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar, agar ish

bo'yicha qabul qilinadigan hal qiluv qarori ularning taraflardan biriga nisbatan bo'lgan huquqlariga yoki majburiyatlariga ta'sir etadigan bo'lsa, sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar da'vogar yoki javobgar tarafida ishga kirishishi mumkin. Ular taraflarning, prokurorning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha yoxud sudning tashabbusi bilan ham ishda ishtirok etishga jalb qilinishi mumkin.

Uchinchi shaxslarning mazkur turi, birinchidan shartli ravishda taraflarning biri (da'vogar yoki javobgar) tarafida turib ishtirok etadi.

Ikkinchidan, ular o'rtasidagi huquqiy munosabat sud muhokamasining predmeti bo'lmaydi.

Uchinchidan, ish bo'yicha chiqariladigan hal qiluv qarori uchinchi shaxslarning taraflaridan biriga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlariga ta'sir qiladi.

Teatr garderobidan pal'to yo'qolgan bo'lsa, gardero xizmatchisi tomoshabinning – pal'to egasining teatrga nisbatan yo'qotgan mulkning qiymatini undirish haqida sudga taqdim etgan da'vo ishida ishtirok etishdan manfaatdor hisoblanadi. Mazkur holatda gardi xizmatchisining manfaatdorligi shu bilan izohlanadiki, agar sud da'vogarning da'vosini qanoatlantiradigan bo'lsa, teatr o'z navbatida, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv asosida pal'to egasiga to'langan summani gardero xizmatchisidan regress da'vo taqdim etish orqali undirib olish mumkin.

Mazkur holatda gardero xizmatchisi (uchinchi shaxs) protsessda tomoshabinga (da'vogarga) va teatrga (javobgarga) hech qanday talabni ilgari surgani yo'q. Unga nisbatan ham yo'qolgan pal'toning qiymatini undirish haqida da'vo talabi bildirish mumkin emas. Chunki mazkur ishda taraflar o'rtasidagi nizoning predmeti mulkni saqlash haqidagi shartnomadir va ushbu shartnoma tomonlari teatr va tomoshabin hisoblanadi.

Biroq, boshqa shaxslar tomonidan boshlangan protsessda ishtirok etish barobarida gardero xizmatchisi (uchinchi shaxs) pal'toning yo'qolishida o'zining aybi yo'qligini isbotlovchi dalillarni keltirish orqali o'zining huquqlarini himoya qilishi va kelajakda unga nisbatan bo'ladigan regress da'voning qanoatlantirilishi rad etilishiga erishish mumkin.

Shunday qilib ushbu turdagi uchinchi shaxslarning manfaatdorligi nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar bilan farqlanadi.

Ma'lumki, Fuqarolik kodeksining 1001-moddasiga ko'ra, boshqa shaxs (mehnat majburiyatlarini bajarayotgan xodim, transport vositasini boshqaruvchi shaxs va h.k) tomonidan yetkazilgan zararni to'lagan shaxs bu shaxsga nisbatan, agar qonunda boshqacha miqdor belgilanmagan bo'lsa, to'langan tovon miqdorida qayta talab qilish (regress) huquqiga ega.

Demak, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar fuqarolik protsessida ko'rilayotgan ishning predmetiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan holatlarda taraflarning, prokurorning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha yoxud sudning tashabbusi bilan ham ishda ishtirok etishga jalb qilinishi mumkin. Bunday shaxslarning jalb qilinishi, sud ishini har tomonlama va to'liq ko'rib chiqilishi bilan bir qatorda keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoni ham aniqlab ko'rib ketishidadir. Ya'ni yuqoridagi misolda ko'rsatilganidek, unda taraflar faqatgina ikkita (da'vogar va javobgar) bo'lib, nizoning predmeti aniq va unda da'voni qanoatlantirish yoki rad etish mumkin. Bunda uchinchi shaxsning ishtirokining asosiy maqsadi da'vo predmetiga ya'ni palatoning haqiqatda yo'qolganligi va uning yo'qolishiga teatrning javobgarligi masalasiga aniqlik kritish bo'lsa, qo'shimcha ravishda o'z-o'zidan agar sud da'vogarning da'vosini qanoatlantirib, javobgarga majburiyat yuklaydigan bo'lsa, javobgar keyinchalik regress tartibda uchinchi shaxsdan undirish yoki undirmaslik masalasi ham aniq bo'lishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Fuqarolik protsessual kodeksining 49-moddasi uchinchi va to'rtinchi qismlariga ko'ra, agar nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o'z harakatlari yoki harakatsizligi oqibatida da'vogarning huquqlari buzilganligi to'g'risida arz qilingan talablarni tan olgan taqdirda, sud majburiyatni bajarishni uchinchi shaxs zimmasiga yuklatish to'g'risida hal qiluv qarori qabul qilishga haqli. Xuddi shunday hollarda, da'vogar va mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o'rtasida kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzilishiga yo'l qo'yiladi.

Agar nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs ishga sud muhokamasi boshlangandan so'ng kirishgan bo'lsa, ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

Demak, qonunchilikda agar ishga nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarga da'vogarning da'vo talabi uchinchi shaxs tomonidan tan olingan bo'lsa, javobgarlik ushbu uchinchi shaxsga yuklanishi ham mumkin. Demak, yuqoridagi misolda keltirilgan garderob xizmatchisi da'vogarning da'vo talabini tan olgan taqdirda javobgarlik uning zimmasiga yuklanishi mumkin.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarni protsessga jalb qilish (kirishish)ning yuridik asoslaridan biri regress huquqining ro'y berishi hisoblanadi. Masalan, agar bolalar ta'minoti uchun aliment undirish haqida da'vo taqdim etilgan bo'lib, javobgar boshqa nikohdan tug'ilgan farzandlariga aliment to'layotganligi aniqlansa, u holda foydasiga aliment undirilayotgan manfaatdor shaxslar javobgar tomonida turib ishda ishtirok etuvchi uchinchi shaxs sifatida jalb etilishi lozim. Mazkur holatda uchinchi shaxsning regress huquqi yuzaga kelmasada, biroq agar da'vo talabi qanoatlantirilgudek bo'lsa, u holda boshqa nikohda bo'lgan farzandlarga to'lanayotgan aliment miqdoriga, ya'ni uchinchi shaxsning manfaatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Vaholanki, Oila kodeksining 99-moddasiga asosan, agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun — to'rt dan bir qismi; ikki bola uchun — uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun — yarmisi miqdorida undiriladi. Bu to'lovlarning miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin.

Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 26,5 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Yuridik adabiyotlarda nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar "taraflarning hamkorligi" deb atalganligi, bu esa ushbu shaxslarning ishdagi ishtirokining harakterini aniq belgilab berishi haqida fikrlar bildirilgan.

Xususan, M.Mamasidiqovning fikriga ko'ra, mazkur shaxslar taraflar (da'vogar yoki javobgar) dan qaysi tomonida turib ishtirok etsa, uning foydasiga hal qiluv qarori

chiqarishiga ko'maklashadi va shu bilan bir qatorda o'zining qonuniy manfaatlarini ham himoya qilishga erishadi.

Sh.Sh.Shorahmetov ham mustaqil talablari bo'lmagan uchinchi shaxs taraflardan birining yordamchisi sifatida ishtirok etib, o'z huquqini himoya qilish maqsadida unga yordam berishini, uchinchi shaxs bilan protsessdagi taraflardan birining manfaatlariga faqat ish yuzasidan qaror chiqarilguncha bir-biriga to'g'ri kelib, keyinchalik bularning manfaatlari bir-biriga zid kelishini ta'kidlaydi.

Biz ham ushbu olimlarni fikriga qo'shilgan holda nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarni ishtirokini "taraflarning hamkorligi" deb atashimiz mumkin va bunday turdagi uchinchi shaxslar taraflarning qaysi tomonidan o'sha tarafning ishiga aniqlik kiritishda ko'maklashadi degan fikrni berishimiz mumkin. Buni yuqorida keltirilgan teatr garderoibi xizmatchisining ishda ishtirok etishi misolida ko'rishimiz ham mumkin.

Yuqoridagilarga asoslanib xulosa qiladigan bo'lsak, qonunchilikda fuqarolik sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning har birining protsessdagi o'rni alohida mustahkamlangan bo'lib, sud ishini qonuniy, adolatli va har tomonlama ko'rib chiqilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, uchinchi shaxslar o'z navbatida ikki turga, ya'ni nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar hamda nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarga bo'linib, har ikki turdagi uchinchi shaxslar protsessda o'zlariga berilgan huquq va majburiyatlardan foydalani va ishni to'liq va har tomonlama ko'rib chiqilishida ishtirok etadi hamda ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Mazkur yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son) <https://lex.uz/docs/6445145>.

2. Mamasiddiqov M.M. Mehnatga oid nizoli ishlarni sudda ko'rishda uchinchi shaxslar ishtiroki // J. "Xo'jalik va huquq". 2000. 7-son. -B. 28-32.

3. Yuridik entsiklopediya / Yuridik fanlar doktori. Professor U.Tadjixonovning umumiy tahririda. – Toshkent “Sharq”. 2001 -294 b. Yuridicheskiy ensklopediicheskiy slovarь/ Pod. obsh. Red. V.E.Krutskiy. 3-e izd. prerab. i dop – M. INFRA-M. 2003. 399 b. Fuqarolik protsessual huquqi.

4. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. // Mas’ul muharrirlar: yu.f.d. prof. M.Mamasidiqov, yu.f.d. prof. D.Yu.Xabibullaev. -Toshkent. “Lesson press”. Nashriyoti. 2020. -607 b.

5. Гражданское процессуальное право. Учебник / С.А.Алехина, Б.Б.Блажев и др.; Под. ред. М.С.Шакарян -М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004. -92 с.

6. Шорахметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал ҳуқуқи. Дарслик. -Тошкент. Адолат. 2001. -66 б.

7. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2019 йил 25 октябрдаги 19-сонли «Фуқаролик ишлари бўйича биринчи инстанция судининг ажримлари тўғрисида»ги қарори. Тошкент ш., 2019 йил 25 октябрь, 19-сон. <https://old.lex.uz/docs/4597589#4599597>.

8. Гражданский процесс. Учебник. Отв. ред. В.В.Ярков. -М.: Волтерс Клувер, 2004. -71 с.